Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING BARQAROR BIZNES MODELLARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH

Shohista Abdunazarova Odiljon qizi
Farg'ona Texnika Unversiteti
Iqtisodiyot yo'nalishi magistranti
+998332000905
abdunazarovashohista685@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.23758929

Annotatsiya

Ushbu maqolada yashil iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish va korxonalarda xarajatlarni kamaytirish masalalari ko'rib chiqilgan. Tadbirkorlik faoliyatida elektr energiyasi, suv va xomashyodan tejamkor foydalanishning ahamiyati tushuntirilgan. Shuningdek, kichik biznesda ekologik toza usullardan foydalanish imkoniyatlari va ularning iqtisodiy foydasi misollar orqali yoritilgan. Maqola yakunida tadbirkorlik faoliyatini yanada samarali tashkil etish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, tadbirkorlik, kichik biznes, xarajatlar, tejamkorlik, ekologiya, barqaror rivojlanish, energiya samaradorligi.

ABSTRACT

This article discusses the development of entrepreneurship and ways to reduce business costs in a green economy. It explains the importance of saving electricity, water and raw materials in business activities. The opportunities for using environmentally friendly methods in small businesses are also considered through the example of a sewing enterprise. Finally, practical recommendations are provided to improve business efficiency and develop sustainable business models.

Keywords: green economy, entrepreneurship, small business, sustainable business model, resource efficiency, environment, costs, energy efficiency.

Аннотация

В данной статье освещаются вопросы формирования и развития устойчивых бизнес-моделей субъектов предпринимательства в условиях зелёной экономики. Также рассматривается значение эффективного использования природных ресурсов, внедрения экологически чистых технологий, сокращения производственных отходов и инновационных подходов в предпринимательской деятельности. Проанализированы отдельные проблемы, препятствующие развитию устойчивых бизнес-моделей, и разработаны предложения по их устранению.

Ключевые слова: зелёная экономика, предпринимательство, устойчивая бизнес-модель, экологическая эффективность, инновации, эффективное использование ресурсов, конкурентоспособность.

KIRISH

Hozirgi vaqtda tadbirkorlikni rivojlantirish bilan birga, tabiatni asrash va mavjud resurslardan to‘g‘ri foydalanish ham muhim hisoblanadi. Chunki har qanday korxona o‘z faoliyatida elektr energiyasi, suv va xomashyodan foydalanadi. Agar ushbu resurslar ortiqcha sarflansa, korxonaning xarajatlari oshadi va daromadi kamayishi mumkin.

Yashil iqtisodiyot ana shu muammolarni kamaytirishga yordam beradi. Bunda tadbirkorlar mahsulot ishlab chiqarish jarayonida resurslarni tejashga, chiqindilarni kamaytirishga va atrof-muhitga zarar yetkazmaslikka harakat qiladilar. Bu nafaqat tabiatni asrash, balki korxona xarajatlarini kamaytirish uchun ham foydalidir.

O‘zbekistonda ham yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4oktabrdagi PQ-4477-son qarori bilan 2019–2030-yillarda yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi tasdiqlangan [1]. Ushbu hujjatda energiya samaradorligini oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan.

Masalan, tikuvchilik bilan shug‘ullanadigan tadbirkor matoni tejab ishlatsa, qolgan mato bo‘laklaridan ham foydalanish yo‘llarini topsa, ortiqcha xarajatlarini kamaytirishi mumkin. Xuddi shuningdek, elektr energiyasidan tejamkor foydalanish ham korxonaning daromadiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuning uchun ushbu maqolada yashil iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish, xarajatlarni kamaytirish va biznesni uzoq muddat davomida samarali yuritish masalalari ko‘rib chiqiladi.

Maqolaning maqsadi yashil iqtisodiyot tamoyillaridan foydalanish orqali tadbirkorlik subyektlarining xarajatlarini kamaytirish va faoliyat samaradorligini oshirish yo‘llarini o‘rganishdan iborat.

1.YASHIL IQTISODIYOT VA TADBIRKORLIK O’RTASIDAGI BOG’LIQLIK

Yashil iqtisodiyot deganda iqtisodiy rivojlanish bilan birga tabiatni asrash va resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan faoliyat tushuniladi. Bunda korxonalar nafaqat daromad olishga, balki ishlab chiqarish jarayonida tabiatga yetkaziladigan zararni kamaytirishga ham e’tibor beradilar.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlarida ham tabiiy resurslardan mas’uliyat bilan foydalanish va barqaror ishlab chiqarishni rivojlantirish muhim vazifalar sifatida belgilangan [2].

Tadbirkorlik faoliyatida elektr energiyasi, suv va xomashyo muhim o‘rin tutadi. Ushbu resurslardan to‘g‘ri foydalanish korxonaning xarajatlarini kamaytirishi mumkin. Masalan, ishlab chiqarishda elektr energiyasini kam sarflaydigan uskunalardan foydalanish yoki xomashyo qoldiqlarini qayta ishlatish orqali qo‘shimcha xarajatlarning oldini olish mumkin.

Yashil iqtisodiyotning yana bir muhim tomoni chiqindilarni kamaytirishdir.

Ayrim korxonalarda ishlab chiqarish jarayonida ko‘p miqdorda chiqindi hosil bo‘ladi. Agar ushbu chiqindilarni saralash, qayta ishlash yoki boshqa maqsadlarda foydalanish imkoniyati bo‘lsa, korxona bundan iqtisodiy foyda olishi mumkin.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit dasturida ham yashil iqtisodiyotga o‘tishda tabiiy resurslardan samarali foydalanish va ekologik faoliyatga investitsiya kiritish muhimligi ta’kidlangan [3].

O‘zbekistonda ham yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Jumladan, 2019-yil 4-oktabrda O‘zbekiston Respublikasining 2019– 2030-yillarda yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi PQ4477-son qarori qabul qilingan’

Ushbu yo‘nalish tadbirkorlar uchun ham muhimdir. Chunki resurslardan tejamkor foydalanish, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash va ishlab chiqarish xarajatlarini nazorat qilish korxonaning kelajakdagi rivojlanishiga yordam beradi.

2.KICHIK BIZNESDA YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARIDAN FOYDALANISH

Kichik biznes mamlakat iqtisodiyotida muhim o‘rin tutadi. U yangi ish o‘rinlarini yaratadi, aholi daromadlarini oshiradi va bozorda turli mahsulot hamda xizmatlar paydo bo‘lishiga yordam beradi. Shu sababli kichik biznesda tejamkor va tabiatga zarar yetkazmaydigan usullardan foydalanish muhim hisoblanadi. Masalan, tikuvchilik korxonasida matoni to‘g‘ri bichish orqali chiqindilarni kamaytirish mumkin. Qolgan mato bo‘laklaridan kichik buyumlar tayyorlash yoki ularni boshqa mahsulotlar ishlab chiqarishda ishlatish ham qo‘shimcha foyda keltiradi.

Non ishlab chiqaradigan korxonalar esa xomashyoni to‘g‘ri saqlash, elektr energiyasini tejash va mahsulotning ortiqcha isrof bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik orqali xarajatlarini kamaytirishlari mumkin.

Qishloq xo‘jaligida faoliyat yurituvchi tadbirkorlar uchun suvni tejash alohida ahamiyatga ega. Suvdan samarali foydalanish usullarini qo‘llash ekinlarni yetishtirish xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, tadbirkorlar mahsulotlarni sotishda internet va elektron savdo imkoniyatlaridan ham foydalanishlari mumkin. Bu orqali ko‘proq mijozlarga yetib borish va savdo hajmini oshirish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Lekin yashil texnologiyalarni joriy etishda ayrim qiyinchiliklar ham uchraydi. Masalan, yangi uskunalarni xarid qilish uchun mablag‘ yetishmasligi yoki ulardan foydalanish bo‘yicha bilimlarning kamligi tadbirkorlar uchun muammo bo‘lishi mumkin.

Shuning uchun kichik biznes vakillari dastlab o‘z korxonalaridagi ortiqcha xarajatlarni aniqlab, katta mablag‘ talab qilmaydigan tejamkor usullardan boshlashlari maqsadga muvofiq.

3.TIKUVCHILIK KORXONASI MISOLIDA AMALIY HISOB-KITOB

Faraz qilaylik, kichik tikuvchilik korxonasi bir oyda 1 000 dona mahsulot ishlab chiqaradi. Mato sarfini maqbullashtirish va energiya tejamkor usullardan foydalanish bo‘yicha choralar ko‘rilishidan oldingi va keyingi holat quyidagicha bo‘lsin.

1-jadval. Tikuvchilik korxonasida resurs tejamkorligining shartli hisob-kitobi

Ko‘rsatkich	Dastlabki holat	Takomillashtirilgandan keyin
Oylik ishlab chiqarish hajmi	1 000 dona	1 000 dona
Bir dona mahsulot uchun mato xarajati	60 000 so‘m	57 000 so‘m
Oylik jami mato xarajati	60 000 000 so‘m	57 000 000 so‘m
Oylik elektr energiyasi xarajati	2 000 000 so‘m	1 700 000 so‘m
Jami ko‘rib chiqilayotgan xarajatlar	62 000 000 so‘m	58 700 000 so‘m

Hisob-kitoblardan ko‘rinadiki, mato xarajatining bir dona mahsulotga 3 000 so‘mga kamayishi natijasida oylik mato xarajati 3 000 000 so‘mga qisqaradi. Elektr energiyasi xarajati esa oyiga 300 000

so‘mga kamayadi. Demak, ko‘rib chiqilgan ikki yo‘nalish bo‘yicha jami oylik tejamkorlik 3 300 000 so‘mni tashkil etadi.

Yillik hisobda ishlab chiqarish hajmi va boshqa shartlar o‘zgarmaydi deb faraz qilinganda, jami tejamkorlik 39 600 000 so‘mga teng bo‘ladi. Ushbu natija resurslardan samarali foydalanish kichik biznesning moliyaviy natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Biroq ushbu tejamkorlikni sof foyda bilan tenglashtirish to‘g‘ri emas. Chunki energiya tejamkor uskunalarni xarid qilish, texnik xizmat ko‘rsatish, xodimlarni o‘qitish va boshqa tashkiliy tadbirlar qo‘shimcha xarajatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun yakuniy iqtisodiy samaradorlikni aniqlashda joriy etish xarajatlari ham hisobga olinishi lozim.

Masalan, resurs tejamkorligini ta’minlashga qaratilgan tadbirlar uchun bir martalik 12 000 000 so‘m sarflangan deb olsak, oylik 3 300 000 so‘mlik tejamkorlik saqlanib qolgan sharoitda oddiy qoplanish muddati quyidagicha aniqlanadi:

Qoplanish muddati = Bir martalik investitsiya / Oylik tejamkorlik. 12 000 000 / 3 300 000 = 3,64 oy.

Demak, shartli hisob-kitob bo‘yicha investitsiya taxminan 3,6 oyda qoplanishi mumkin. Amalda esa qoplanish muddati haqiqiy xarajatlar, ishlab chiqarish hajmi, energiya tariflari va erishilgan tejamkorlikka qarab o‘zgaradi.

Mazkur misoldan kelib chiqib aytish mumkinki, tadbirkorlik subyektlarida yashil biznes modelini joriy etishdan oldin resurslar sarfini tahlil qilish, iqtisodiy jihatdan eng maqbul choralarni tanlash va natijalarni muntazam kuzatib borish zarur. Bunday yondashuv ekologik maqsadlarni korxonaning iqtisodiy manfaatlari bilan uyg‘unlashtirishga yordam beradi.

4.TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA BARQAROR BIZNES MODELINI SHAKILLANTIRISH

Tadbirkorlik subyektlarida barqaror biznes modelini shakllantirish bir nechta muhim yo‘nalishlarni qamrab oladi. Birinchi navbatda, tabiiy resurslardan samarali foydalanishga e’tibor qaratish lozim. Elektr energiyasi, suv va xomashyo sarfini muntazam nazorat qilish ortiqcha xarajatlarning oldini olishga yordam beradi.

Ikkinchi yo‘nalish — ekologik jihatdan samarali texnologiyalarni joriy etishdir. Zamonaviy uskunalar va ishlab chiqarishni boshqarishning takomillashtirilgan usullari resurslar sarfini kamaytirish, mahsulot sifatini oshirish va ishlab chiqarish jarayonlarini yaxshilash imkonini beradi. Biroq bunday texnologiyalarni tanlashda ularning narxi, foydalanish muddati va kutilayotgan iqtisodiy samarasi hisobga olinishi kerak.

Uchinchi yo‘nalish chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash imkoniyatlarini kengaytirish bilan bog‘liq. Ishlab chiqarish jarayonida hosil bo‘ladigan ayrim chiqindilarni qayta ishlatish yoki boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin. Bu yondashuv materiallardan samarali foydalanishga va atrof-muhitga tushadigan yukni kamaytirishga xizmat qiladi. To‘rtinchi yo‘nalish — xodimlarning ekologik mas’uliyatini oshirish. Korxonada tejamkorlik madaniyatini shakllantirish, xodimlarni resurslardan oqilona foydalanishga jalb etish va yangi takliflarni rag‘batlantirish barqaror biznes modelining amaliy natijalarini yaxshilashi mumkin

Har qanday tadbirkor o‘z faoliyatida daromadni oshirish va xarajatlarni kamaytirishga intiladi. Buning uchun mahsulot ishlab chiqarish jarayonini to‘g‘ri tashkil etish, resurslardan tejamkor foydalanish va xarajatlarni muntazam nazorat qilib borish kerak. [4]

Jumladan korxonada elektr energiyasi va suv sarfini hisobga olish lozim. Bu orqali qaysi jarayonlarda ortiqcha xarajat borligini aniqlash mumkin.

Xomashyoni tejashga e'tibor berish zarur. Masalan, mahsulot ishlab chiqarishda xomashyoni to'g'ri taqsimlash va chiqindilarni kamaytirish korxona xarajatlarini qisqartiradi va zamonaviy va energiya tejamkor uskunalardan foydalanish mumkin. Bunday uskunalar uchun dastlab mablag' sarflanadi, lekin keyinchalik elektr energiyasi xarajatlarini kamaytirishga yordam berishi ehtimoli bor.

Xodimlarga resurslardan to'g'ri foydalanish qoidalarini tushuntirish muhim. Chunki korxonada tejamkorlik faqat rahbarning emas, balki barcha xodimlarning e'tiborida bo'lishi kerak. Korxona o'z xarajatlarini har oy tahlil qilib borishi lozim. O'tgan oy va joriy oy ko'rsatkichlarini taqqoslash orqali qaysi xarajatlar kamaygani yoki oshganini bilish mumkin.

O'zbekistonda yashil iqtisodiyot tamoyillarini tadbirkorlik faoliyatida kengroq qo'llash uchun bir qator ishlarni amalga oshirish mumkin.

Masalan tadbirkorlarga elektr energiyasi, suv va xomashyoni tejash usullari haqida ko'proq ma'lumot berish kerak. Buning uchun amaliy seminarlar va tushuntirish tadbirlarini tashkil etish mumkin.

Kichik biznes vakillariga energiya tejamkor uskunalar va boshqa zamonaviy texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlari haqida ma'lumot berish zarur.

Korxonalarda xarajatlarni hisobga olish va tahlil qilishni yo'lga qo'yish kerak. Buning uchun oddiy elektron jadvallardan ham foydalanish mumkin.

Ishlab chiqarish chiqindilarini kamaytirish va qayta foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish lozim. Bu orqali ayrim xomashyo xarajatlarini qisqartirish mumkin.

Shu bilan birga oliy ta'lim muassasalari va tadbirkorlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish ham maqsadga muvofiq bo'ladi Talabalar tomonidan tayyorlangan iqtisodiy tahlillar va takliflar korxonalardagi muammolarni aniqlashga yordam berishi mumkin.

Barqaror biznes modelini rivojlantirishda innovatsiyalar muhim o'rin tutadi. Bunda faqat yangi texnologiyalarni xarid qilish emas, balki mavjud ish jarayonlarini takomillashtirish, mahsulotni ishlab chiqarish va yetkazib berish usullarini qayta ko'rib chiqish ham nazarda tutiladi.

Masalan, raqamli texnologiyalar orqali xomashyo sarfini hisobga olish, mahsulotga bo'lgan talabni oldindan baholash va ombordagi zaxiralarni nazorat qilish mumkin. Bu ortiqcha mahsulot ishlab chiqarilishi, keraksiz xaridlar va resurslarning isrof bo'lishi xavfini kamaytiradi. Bundan tashqari, mahsulotni ta'mirlash, qayta foydalanish yoki qayta ishlash imkoniyatlarini hisobga olgan holda loyihalash ham resurs samaradorligini oshiradi

Barqaror biznes modelini shakllantirishda tadbirkorlarning boshqa tashkilotlar bilan hamkorligi ham ahamiyatlidir. Moliya tashkilotlari ekologik loyihalarni amalga oshirish uchun mablag' topishga ko'maklashishi, ta'lim muassasalari esa tadbirkorlarga yangi texnologiyalar va zamonaviy boshqaruv usullari bo'yicha bilim berishi mumkin. Yetkazib beruvchilar bilan hamkorlik qilish orqali ekologik talablarga mos xomashyo va materiallarni tanlash imkoniyati ham kengayadi.

Biroq barqaror biznes modeliga o'tish jarayonida ayrim qiyinchiliklar mavjud.

Jumladan, zamonaviy uskunalarning yuqori narxi, moliyaviy mablag'larning cheklanganligi va ekologik texnologiyalar bo'yicha bilimlarning yetarli emasligi tadbirkorlar uchun muammo tug'dirishi mumkin. Shu sababli imtiyozli moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish, maslahat xizmatlarini rivojlantirish va tadbirkorlarning malakasini oshirish muhim hisoblanadi.

5.YASHIL INOVATSIYALAR VA ULARNING KICHIK BIZNES RIVOJLANISHIDAGI AXAMIYATI

Yashil innovatsiyalar — tabiiy resurslardan samarali foydalanish, energiya sarfini kamaytirish, atrof-muhitga salbiy ta’sirni pasaytirish va ishlab chiqarish jarayonlarini ekologik jihatdan takomillashtirishga qaratilgan yangi texnologiyalar, mahsulotlar hamda boshqaruv usullaridir. O‘zbekistonda kichik biznes subyektlarida yashil innovatsiyalarni joriy etish yashil iqtisodiyotga o‘tishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Kichik biznesda yashil innovatsiyalarni quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirish mumkin:

Energiya tejamkor texnologiyalar: ishlab chiqarishda kam energiya sarflaydigan uskunalar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va LED yoritish vositalaridan foydalanish.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari: korxonalarda quyosh panellarini o‘rnatish orqali an’anaviy energiya manbalariga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirish.

Chiqindisiz yoki kam chiqindili ishlab chiqarish: xomashyoni tejash, ishlab chiqarish chiqindilarini qayta ishlash va ulardan ikkilamchi resurs sifatida foydalanish.

Suv tejovchi innovatsiyalar: tomchilatib sug‘orish, suvni qayta ishlatish va ishlab chiqarishda suv sarfini nazorat qilish texnologiyalarini joriy etish.

Raqamli ekologik boshqaruv: energiya va suv sarfini raqamli hisobga olish, resurslardan foydalanishni monitoring qilish hamda ortiqcha xarajatlarni aniqlash. Yashil innovatsiyalarni joriy etish kichik biznes subyektlarining ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, mahsulot tannarxini optimallashtirish va bozordagi raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.[5]

6.KICHIK BIZNESNING YAIMDAGI ULUSHI

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi (YaIM) ulushi 2024-yilda 53,5 foizni, 2025-yilda esa 52,2 foizni tashkil etgan. 2026-yilning birinchi yarim yilligida kichik biznesning yalpi qo‘shilgan qiymatdagi ulushi 50,5 foiz bo‘lgan. Yil YaIMdagi ulushi

2023 53,8%
2024 53,5%
2025 52,2%

2026-yil I yarim yillik 50,5%* 2026-yil ko‘rsatkichi yarim yillik ma’lumot bo‘lib, to‘liq yil natijasi emas. Kichik biznes mamlakat iqtisodiyotida muhim o‘rin tutadi. Shu sababli uning energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy o‘sish bilan bir

qatorda atrof-muhitni muhofaza qilishga ham xizmat qiladi.[6]

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yashil iqtisodiyot tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Chunki resurslardan to‘g‘ri foydalanish, elektr energiyasi va xomashyoni tejash korxona xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi. Shu bilan birga, tabiatni asrash va chiqindilarni kamaytirish ham muhim vazifa hisoblanadi.

Yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish katta korxonalar uchun ham, kichik biznes vakillari uchun ham foydali bo‘lishi mumkin. Buning uchun avvalo kundalik faoliyatda tejamkorlikka e’tibor berish, xarajatlarni nazorat qilish va yangi imkoniyatlardan oqilona foydalanish kerak.

Barqaror biznes modelini rivojlantirish uchun resurslarni tejash, ekologik texnologiyalarni joriy etish, innovatsion boshqaruv usullaridan foydalanish va hamkorlik aloqalarini kengaytirish zarur. Shu bilan birga, moliyaviy cheklovlar va bilim yetishmasligi kabi muammolarni bartaraf etish ham muhimdir.

Kelajakda tadbirkorlik subyektlarida bunday usullarning keng qo‘llanilishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va barqaror iqtisodiy rivojlanishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477son qarori. “2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining ‘yashil’ iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”. LexUZ. https://lex.uz/acts/-4539502
2. United Nations. Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development. New York, 2015. https://sdgs.un.org/2030agenda
3. United Nations Environment Programme (UNEP). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. 2011. https://wedocs.unep.org/handle/20.500.11822/9158
4. Jørgensen, S., Pedersen, L. J. T. RESTART Sustainable Business Model Innovation. Palgrave Macmillan, 2018. https://doi.org/10.1007/978-3-319-91971-3
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436son qarori. 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida. URL: https://lex.uz/docs/6303230
6. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami YaIMdagi ulushi. SIAT statistik ma’lumotlar bazasi, 2023– 2026-yillar ma’lumotlari. URL: https://siat.stat.uz/data/420/